1

Bob

TA’LIM OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Bolalar uchun birinchi pedagog kimligi va ota-onalar (qonuniy vakillar) o‘rtasidagi nizolarni hal qilish haqida

1.2. Ta’lim oluvchini qonuniy vakillar roziligisiz boshqa sinfga o‘tkazish haqida

1.3. Ta’lim olishda emlash (privivka) va boshqa tibbiy qarshi ko‘rsatmalar haqida

1.4. Akademik qarzdorlik mavjud bo‘lganda ta’lim oluvchini keyingi sinfga o‘tkazish haqida

1.5. Ixtisoslashtirilgan ta’limga qabul qilish tartibi haqida

1.6. Ta’lim oluvchi tomonidan ta’lim olish shakli va ta’lim tashkilotini tanlash to‘g‘risida.

1.7. Ta’lim oluvchilarning shaxsiy ma’lumotlari.

1.8. Elektron kundalik.

KEYS 1.1. MAKTAB VA OTA-ONA MAS’ULIYATI: NIZOLI VAZIYATDA DIREKTOR QANDAY YO‘L TUTISHI KERAK?

Keys

Boshlang‘ich sinf ota-onalari uchun o‘tkazilgan yig‘ilishda qizg‘in bahs yuzaga keldi. Ota-onalardan biri: “Biz ertalabdan kechgacha ishdamiz, bola vaqtining asosiy qismini maktabda o‘tkazyapti, demak, uni tarbiyalash ham, o‘qitish ham to‘liq maktabning bo‘ynida!” — degan fikrni bildirdi.

❓ Ushbu vaziyatda maktab ma’muriyati o‘zini qanday tutishi lozim va qonunchilikda bu masalalar qanday belgilangan?

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, bolaning ta’lim-tarbiyasi uchun maktab emas, birinchi navbatda ota-ona mas’ul va javobgardir. Maktab esa bu jarayonda faqat ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Normativ asos

Birinchi pedagoglar — ota-onadir: O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 51-moddasiga muvofiq, ota-onalar bolaning barvaqt rivojlanishi, uning jismoniy, ma’naviy va intellektual kamol topishi uchun shaxsan javobgardirlar hamda ularning birinchi pedagoglari hisoblanadi. Ular farzandining ta’lim olishini ta’minlashi shart.

Normativ asos

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida bolalarni parvarish qilish, ularga tarbiya va ta’lim berish, sog‘lom hamda har tomonlama kamol topishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish ota-onalarning (qonuniy vakillarning) majburiyati ekanligi qat’iy belgilangan

Normativ asos

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 51-moddasi 2-qismiga ko‘ra, davlat organlari va ta’lim tashkilotlari ota-onalarga bolalarni tarbiyalash, ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘maklashadi. Mazkur norma ota-onalar bola tarbiyasi uchun asosiy mas’ul ekanligini, maktab esa bu jarayonda yordam beruvchi institut sifatida ishtirok etishini anglatadi.

Bolalarni erta yoshdan tarbiyalashda asosiy rol ota-onalar (qonuniy vakillar) zimmasiga yuklatilgani sababli, ta’lim tashkilotlariga yordamchi vazifalar yuklanadi

Shu sababli, ta’lim-tarbiya jarayonini faqat maktab zimmasiga yuklash to‘g‘ri emas. Bola shaxsining shakllanishi, uning axloqiy qarashlari, muomala madaniyati, mas’uliyat hissi va hayotiy qadriyatlari, eng avvalo, oilada shakllanadi. Maktab esa ushbu jarayonni tizimli ravishda davom ettiruvchi, bolaga bilim beruvchi, uning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu bois ota-ona va maktab bir-birining vazifasini inkor etuvchi emas, balki o‘zaro hamkorlik qiluvchi ikki muhim tarbiyaviy subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Agar ota-onalar farzandining tarbiyasi va ta’limiga befarq bo‘lsa yoki barcha mas’uliyatni faqat maktab zimmasiga yuklasa, bu bolaning ruhiy holati, intizomi, o‘qishga munosabati hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki bola uchun oiladagi muhit, ota-onaning e’tibori, nazorati va qo‘llab-quvvatlashi uning muvaffaqiyatida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Maktab esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va pedagogik yordam ko‘rsatuvchi vazifani bajaradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham bolaning barkamol rivojlanishi faqat ta’lim tashkiloti faoliyati bilan emas, balki oila, maktab va jamiyatning o‘zaro hamkorligi orqali ta’minlanishi ta’kidlanadi. Shu sababli maktab ma’muriyati bunday vaziyatlarda ota-onalar bilan qarama-qarshilikka kirishmasdan, ularga qonunchilikdagi normalarni tushuntirishi, o‘zaro mas’uliyat va hamkorlik tamoyillarini targ‘ib qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



KEYS 1.2. TA’LIM OLUVCHINI QONUNIY VAKILLAR ROZILIGISIZ BOSHQA SINFGA O‘TKAZISH HAQIDA.

Keys

5-sinf o‘quvchisi Azizning xulq-atvori va o‘zlashtirishida ayrim muammolar kuzatila boshladi. Sinf rahbari hamda maktab ma’muriyati uning boshqa sinfga o‘tkazilishi bolaning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi, degan qarorga keldi. Biroq bu masala ota-onasi bilan oldindan muhokama qilinmasdan, Aziz boshqa sinfga o‘tkazildi. Bu holatdan xabar topgan ota-onalar maktab ma’muriyatidan norozi bo‘lib, farzandining fikri hamda oila roziligisiz bunday qaror qabul qilinganini ta’kidladilar.

❓ O‘quvchini ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining murojaatisiz boshqa parallel sinfga o‘tkazish mumkinmi?

❓ O‘quvchini boshqa sinfga o‘tkazishda qanday tartibga rioya qilinishi lozim?

❓ Bunday vaziyatda maktab ma’muriyati qanday choralar ko‘rishi kerak?

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2015-yil 2-iyundagi 13-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 17-iyunda 2684-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘quvchilarni sinfdan sinfga va bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 7–9-bandlariga muvofiq, o‘quvchini bir parallel sinfdan boshqasiga o‘tkazish ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakilining yozma murojaati asosida amalga oshiriladi. Maktab direktori murojaatni belgilangan tartibda ko‘rib chiqib, tegishli buyruq chiqaradi

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 51-moddasiga muvofiq, ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ta’lim olishi, tarbiyasi hamda huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun mas’uldir. Ular farzandining ta’limiga oid masalalarda ishtirok etish huquqiga ega.

_____

(viloyat (respublika, shahar), tuman (shahar)

____-sonli maktabga
KELISH TALONI

Ushbu talon 20 __ yil ____ _____ da _____ tumani (shahri)dagi ___ -sonli maktabning ___ -sinf o‘quvchisi _____ga

(o‘quvchining F.I.O.)

u _____ tumani (shahri)dagi ____ -sonli maktabga ketish talonini topshirganligini tasdiqlash uchun berildi.

_____ _____

(imzo) *(maktab direktorining F.I.O.)*

M.O‘.

Maktab direktorining
telefon raqami: _____

_____

(viloyat (respublika, shahar), tuman (shahar)

____-sonli maktabdan
KETISH TALONI

Ushbu talon 20 __ yil ____ _____ da _____ tumani (shahri)dagi ____ -sonli maktabning ____ -sinf o‘quvchisi _____

(o‘quvchining F.I.O.)

boshqa maktabga o‘tkazilayotganligini tasdiqlash uchun berildi.

_____ _____

(imzo) *(maktab direktorining F.I.O.)*

M.O‘.

Maktab direktorining
telefon raqami: _____

Vaziyat yuzasidan ko‘riladigan choralar:

- o‘quvchini boshqa sinfga o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘rganish;
- ota-onalar bilan uchrashuv o‘tkazib, vaziyat yuzasidan tushuntirish berish;
- zarur hollarda o‘quvchini boshqa sinfga o‘tkazish haqidagi buyruqni qayta ko‘rib chiqish;
- qonunchilikda belgilangan tartib asosida ota-onaning yozma murojaatini rasmiylashtirish;
- qarorni bolaning manfaatlari va ta’lim sifati inobatga olingan holda qabul qilish.

Ta’lim oluvchini boshqa parallel sinfga o‘tkazish belgilangan tartib asosida, ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining ishtiroki va yozma murojaati mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilishi lozim. Ta’lim tashkiloti bunday masalalarda bolaning manfaatlarini ustuvor qo‘yishi, ota-onalar bilan hamkorlik qilishi hamda amaldagi qonunchilik talablariga qat’iy rioya etishi zarur.



KEYS 1.3. TA’LIM OLISHDA EMLASH (PRIVIVKA) VA BOSHQA TIBBIY QARSHI KO‘RSATMALAR HAQIDA.

Keys

1-sinfga qabul qilingan o‘quvchi Jamshidning tibbiy hujjatlarida (026-shakl) ayrim majburiy profilaktik emlashlar bajarilmaganligi qayd etilgan. Ota-onalar bolaga emlash o‘tkazilishini vaqtincha rad etishgan, biroq bola hozirda umumiy sog‘lom hisoblanadi.

Maktab ma’muriyati esa “boshqa o‘quvchilarning sog‘lig‘ini yuqumli kasalliklardan himoya qilish” vajini keltirib, Jamshidni darslarga kiritmaslik yoki qabulni emlash oxiriga qadar kechiktirish masalasini ko‘rib chiqmoqda. Ota-ona esa farzandining konstitutsiyaviy ta’lim olish huquqi emlash holatiga bog‘liq emasligini da’vo qilmoqda.

❓ O‘quvchining emlanmaganligi yoki emlashga tibbiy qarshi ko‘rsatmalari mavjudligi uni maktabga qabul qilmaslik yoki ta’lim olish huquqini cheklash uchun asos bo‘la oladimi?

❓ Maktab direktori bunday vaziyatda qonunan qanday qaror qabul qilishi shart?

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ta’lim olish huquqi har bir bola uchun kafolatlangan bo‘lib, u emlash holati yoki tibbiy profilaktika tadbirlarining amalga oshirilganligiga bevosita bog‘liq emas.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, emlash profilaktik chora hisoblanadi va aholining sog‘ligini saqlash hamda yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan. Mazkur qonunda emlanmaganlik holati ta’lim olish huquqini cheklash yoki ta’lim muassasasiga qabul qilmaslik uchun bevosita asos sifatida belgilanmagan.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunining 28-moddasiga ko‘ra, fuqarolar (yoki ularning qonuniy vakillari) tibbiy aralashuvni, shu jumladan profilaktik emlashlarni rad etish huquqiga ega.

Shu sababli, emlanmaganlik holati o‘quvchini ta’lim muassasasiga qabul qilmaslik yoki uni ta’lim jarayonidan chetlatish uchun huquqiy asos bo‘la olmaydi. Ta’lim olish huquqi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kafolatlangan va barcha bolalar uchun teng hisoblanadi.

Tibbiy qarshi ko‘rsatmalar esa faqat vakolatli tibbiy muassasa tomonidan rasmiy ravishda aniqlanadi va ular bolaning sog‘ligini himoya qilishga qaratilgan individual tavsiyalar hisoblanadi. Bunday holatlarda ta’lim tashkiloti o‘quvchining sog‘lig‘ini inobatga olgan holda moslashtirilgan sharoitlar yaratishi mumkin, ammo uni ta’limdan chetlatishi mumkin emas.

Maktab ma’muriyati bunday vaziyatda:

Emlanmagan o‘quvchi bo‘yicha nizoli vaziyat yuzaga kelganda, maktab direktori quyidagi tartibda ish yuritishi lozim:



1. O‘quvchini darslarga so‘zsiz qabul qilish: Maktabda oddiy (epidemiologik barqaror) sharoit hukmron bo‘lgan vaqtda, emlashlar yo‘qligi sababli bolani maktabga qabul qilmaslik yoki darsdan chetlatish mutlaqo g‘ayriqonuniy hisoblanadi. Direktor bolani 1-sinfga qabul qiladi.
2. Tibbiy hujjatlarni tahlil qilish: Maktab hamshirasi o‘quvchining tibbiy kartasini (026-shakl) tekshirishi lozim. Agar emlashlar o‘tkazilmaganligiga rasmiy tibbiy qarshi ko‘rsatma bo‘lsa, maktab ushbu tibbiy xulosani qabul qiladi va bolaga alohida e’tibor qaratadi.
3. Ota-onalar bilan tushuntirish ishlari: Agar emlash qonuniy tibbiy sababsiz, shunchaki ota-onaning shaxsiy qarashlari tufayli rad etilgan bo‘lsa, maktab ma’muriyati hududiy oilaviy poliklinika shifokorlarini jalb qilgan holda ota-ona bilan profilaktik suhbat tashkil qiladi. Suhbat davomida emlanmagan bolaning o‘zi kelgusida maktabda yuqumli kasallik yuqtirib olish xavfi yuqori ekanligi tushuntiriladi.
4. Karantin va epidemiya davridagi maxsus reja: Agar hududda biron-bir yuqumli kasallik bo‘yicha Bosh davlat sanitariya vrachi yoki SSV tomonidan maxsus qaror qabul qilinsa, direktor ushbu muddat davomida emlanmagan o‘quvchi Jamshidni vaqtincha darslardan chetlatadi (maktab buyrug‘i bilan) va uning ta’limni uzilib qolmasligi uchun masofaviy (onlayn) o‘quv shaklini tashkil etadi.

Oddiy sharoitda emlanmaganlik yoki emlashga tibbiy qarshi ko‘rsatma bolaning maktabda ta’lim olish huquqini cheklash uchun asos bo‘la olmaydi. Ta’lim huquqi ustuvor hisoblanadi.

KEYS 1.4. O‘QUVCHINING FANLARNI O‘ZLASHTIRISH NATIJALARI ASOSIDA KEYINGI SINFGA O‘TKAZILISHI TARTIBI

Keys

7-sinf o‘quvchisi Behruz o‘quv yili yakunida matematika va ingliz tili fanlaridan qoniqarsiz baholar oldi. Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra, u ayrim fanlarni belgilangan darajada o‘zlashtirmagani aniqlandi.

Behruzning ota-onasi uni sinfdoshlari bilan birga keyingi sinfga o‘tkazishni so‘rab maktab ma’muriyatiga murojaat qildi. Ularning fikricha, o‘quvchini sinfda qoldirish uning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Maktab pedagogik kengashi esa o‘quvchining bilim darajasi keyingi sinf dasturini o‘zlashtirish uchun yetarli emasligini bildirdi.

❓ Fanlarni yetarli darajada o‘zlashtirmagan o‘quvchini keyingi sinfga o‘tkazish mumkinmi?

❓ Maktab ma’muriyati bunday vaziyatda qanday tartibda qaror qabul qilishi lo...

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, o‘quvchini keyingi sinfga o‘tkazish masalasi uning o‘quv dasturini qay darajada o‘zlashtirgani asosida hal etiladi.

Normativ asos

“O‘quvchilarni sinfdan sinfga va bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, o‘quvchining yillik baholari, yakuniy nazorat natijalari hamda fanlarni o‘zlashtirish darajasi pedagogik kengash tomonidan ko‘rib chiqiladi

Agar o‘quvchi ayrim fanlarni belgilangan talab darajasida o‘zlashtirmagan bo‘lsa, maktab pedagogik kengashi uning o‘quv natijalarini har tomonlama ko‘rib chiqadi hamda o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichiga tayyorgarlik darajasini baholaydi. Bunda faqatgina yakuniy baholar emas, balki o‘quvchining yil davomida darslardagi faolligi, oraliq nazorat natijalari, mustaqil ishlari, davomat ko‘rsatkichlari va umumiy o‘zlashtirish dinamikasi ham inobatga olinadi.

Pedagogik kengash quyidagi choralarni qo‘llashi mumkin:

- o‘quvchini qayta topshirishga yo‘naltirish;
- ayrim fanlar bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar va konsultatsiyalar tashkil etish;
- o‘quvchiga bilimlardagi bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun ma’lum muddat berish;
- o‘quvchining psixologik holati va individual imkoniyatlarini maktab psixologi ishtirokida o‘rganish;
- ota-onalar bilan birgalikda o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

📌 o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasi qoniqarsiz deb topilgan hollarda uni sinfda qoldirish masalasini muhokama qilish.

📌 Bunda ota-onalarning fikri va murojaati muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, faqat ularning istagi o‘quvchini avtomatik ravishda keyingi sinfga o‘tkazish uchun yetarli huquqiy asos hisoblanmaydi. Chunki ta’lim tizimida asosiy mezon — o‘quvchining davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlarini belgilangan darajada o‘zlashtirganligi hisoblanadi.

📌 Shuningdek, pedagogik kengash qaror qabul qilishda bolaning manfaatlarini ustuvor hisobga olishi lozim. Agar o‘quvchini yetarli tayyorgarliksiz keyingi sinfga o‘tkazish uning kelgusidagi ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, bu holat albatta e’tiborga olinadi.

Maktab ma’muriyati bunday vaziyatda:

📌 o‘quvchining baholari, yakuniy nazorat natijalari va davomat ko‘rsatkichlarini rasmiy tartibda tahlil qilishi;

📌 fan o‘qituvchilari, sinf rahbari va psixologning xulosalarini yig‘ishi;

📌 pedagogik kengash yig‘ilishini tashkil etib, masalani muhokama qilishi;

📌 qabul qilingan qarorni bayonnoma asosida rasmiylashtirishi;

📌 ota-onalarni qaror mazmuni va uning asoslari bilan tanishtirishi;

📌 o‘quvchining keyingi ta’lim jarayonini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishi lozim.

Shu bilan birga, ta’lim muassasasi o‘quvchini jazolash maqsadida emas, balki uning sifatli bilim olishini ta’minlash maqsadida qaror qabul qilishi kerak. O‘quvchini sinfda qoldirish chorasi ham faqat ta’lim sifati va o‘quvchining manfaatlaridan kelib chiqib qo‘llanilishi mumkin.

Fanlarni yetarli darajada o‘zlashtirmagan o‘quvchini keyingi sinfga o‘tkazish masalasi individual tartibda, pedagogik kengash tomonidan qonunchilik va amaldagi nizom talablariga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Asosiy mezon — o‘quvchining o‘quv dasturini belgilangan darajada o‘zlashtirganligi, keyingi bosqichda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorligi hamda uning manfaatlarini ta’minlash hisoblanadi.

KEYS 1.5. IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIMGA QABUL QILISH TARTIBI HAQIDA

Keys

6-sinf o‘quvchisi Dilshod matematika faniga qiziqadi va ota-onasi uni matematika fani chuqur o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan sinfga o‘tkazish uchun hujjat topshirdi. Maktabda ixtisoslashtirilgan sinfga qabul tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, o‘quvchilar test sinovi va suhbatdan o‘tishi kerak edi.

Dilshod kirish sinovida yetarli ball to‘play olmadi va qabul komissiyasi tomonidan ixtisoslashtirilgan sinfga tavsiya etilmadi. Biroq ota-onasi farzandining fanlarga qiziqishi yuqori ekanligini bildirib, uni imtihonsiz qabul qilishni talab qildi. Ular maktab ma’muriyatiga murojaat qilib, boshqa ayrim o‘quvchilar tanish-bilish orqali qabul qilingan bo‘lishi mumkinligini ham ta’kidlashdi.

Maktab ma’muriyati esa barcha o‘quvchilar uchun yagona qabul tartibi amal qilishini va tanlov natijalari asosiy mezon hisoblanishini bildirdi.

❓ Ixtisoslashtirilgan ta’limga o‘quvchilarni imtihonsiz yoki tanlovsiz qabul qilish mumkinmi?

❓ Maktab ma’muriyati bunday vaziyatda qanday tartibda ish yuritishi lozim?

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan sinflarga o‘quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Normativ asos

Ixtisoslashtirilgan ta’limga qabul qilishda o‘quvchining bilim darajasi, kirish sinovlari natijalari, qobiliyati hamda o‘quv ko‘rsatkichlari asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli qabul jarayoni barcha nomzodlar uchun tenglik, shaffoflik va adolat tamoyillari asosida tashkil etilishi lozim.

Maktab ma’muriyati qabul jarayonini belgilangan tartib asosida tashkil etishi, qabul mezonlarini oldindan e’lon qilishi hamda test va suhbatlarni barcha o‘quvchilar uchun yagona talablar asosida o‘tkazishi shart. Shuningdek, qabul komissiyasi qarorlari tegishli tartibda rasmiylashtirilishi va ota-onalarga qabul natijalari haqida tushuntirish berilishi lozim.

Agar o‘quvchi belgilangan minimal talablarni bajarmagan bo‘lsa, maktabning uni ixtisoslashtirilgan sinfga qabul qilmaslik haqidagi qarori qonuniy hisoblanadi. Chunki ixtisoslashtirilgan ta’limga qabul qilishda asosiy mezon o‘quvchining tayyorgarlik darajasi va tanlov natijalari hisoblanadi.

Shuningdek, faqat ota-onaning iltimosi, tanish-bilish yoki boshqa subyektiv omillar asosida o‘quvchini imtihonsiz qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday holat qonunchilikda belgilangan tenglik va adolat tamoyillariga zid hisoblanadi.

Agar ota-onalar qabul natijalaridan norozi bo‘lsa, ular belgilangan tartibda apellyatsiya qilish huquqiga ega. Bunday vaziyatda maktab ma’muriyati qabul jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashi, shuningdek, qabul natijalari yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berishi zarur.

KEYS 1.6. TA’LIM OLUVCHI TOMONIDAN TA’LIM OLISH SHAKLI VA TA’LIM TASHKILOTINI TANLASH TO‘G‘RISIDA.

Keys

8-sinf o‘quvchisi Mohiraning ota-onasi yashash manzili bo‘yicha biriktirilgan maktabdan norozi bo‘lib, farzandini boshqa tumandagi nufuzli umumta’lim maktabiga o‘tkazishga qaror qildi. Ularning fikricha, tanlangan maktabda xorijiy tillar chuqurroq o‘qitiladi va ta’lim sifati yuqoriroq hisoblanadi.

Ota-onalar yangi maktabga ariza bilan murojaat qildi. Biroq maktab ma’muriyati sinflarda o‘quvchilar soni me’yordan ortib ketganini sabab qilib, Mohirani qabul qilishni rad etdi. Shuningdek, ma’muriyat ushbu maktab faqat shu hududda yashovchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallanganini bildirdi.

Ota-onalar esa farzandining ta’lim tashkilotini tanlash huquqi borligini ta’kidlab, maktabning rad javobi qonuniy emasligini aytishdi.

❓ Ota-onalar va ta’lim oluvchi boshqa ta’lim tashkilotini tanlash huquqiga egami?

❓ Maktab ma’muriyati qanday holatlarda o‘quvchini qabul qilishni rad etishi mumkin?

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, voyaga yetmagan ta’lim oluvchining manfaatlarini uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari himoya qiladi hamda ular farzandi uchun ta’lim tashkilotini tanlash huquqiga ega.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra, ota-onalar o‘quvchini boshqa umumta’lim maktabiga o‘tkazish bo‘yicha murojaat qilish huquqiga ega hisoblanadi. Bunda o‘quvchini qabul qilish masalasi ta’lim muassasasidagi mavjud sharoitlar, sinflardagi o‘quvchilar soni va qabul imkoniyatidan kelib chiqib ko‘rib chiqiladi

Maktab ma’muriyati o‘quvchini qabul qilish yoki rad etishda qonunchilikda belgilangan tartib va me’yorlarga amal qilishi shart.

Maktab ma’muriyati qabulni faqat quyidagi holatlarda rad etishi mumkin:

- Sinfdagi o‘quvchilar soni belgilangan me’yordan ortiq to‘ldirilgan bo‘lsa;
- Qo‘shimcha o‘quvchi qabul qilish uchun zarur moddiy-texnik sharoit mavjud bo‘lmasa;
- Sanitariya-gigiyena yoki xavfsizlik talablari buzilishi xavfi yuzaga kelsa.
- Faqat subyektiv sabablar, shaxsiy munosabat yoki boshqa noqonuniy omillar asosida o‘quvchini qabul qilmaslik mumkin emas.

Shuningdek, ota-onalar farzandi uchun ta’lim shaklini tanlash huquqiga ham ega. Qonunchilikda umumiy o‘rta ta’limni kunduzgi, oilaviy, eksternat va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda olish imkoniyati belgilangan.

Agar ota-onalar maktabning qaroridan norozi bo‘lsa, ular yuqori turuvchi ta’lim organiga (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hududiy boshqarmalariga) yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Ta’lim oluvchi va uning ota-onasi ta’lim tashkiloti hamda ta’lim olish shaklini tanlash huquqiga ega. Biroq o‘quvchini boshqa maktabga qabul qilish masalasi ta’lim muassasasining imkoniyatlari va amaldagi nizom talablaridan kelib chiqib hal etiladi. Maktabning rad javobi faqat qonuniy va asoslantirilgan hollarda haqiqiy hisoblanadi.

KEYS 1.7. TA’LIM OLUVCHILARNING SHAXSIY MA’LUMOTLARI.

Keys

9-sinf mudiri (sinf rahbari) ota-onalarning Telegram guruhiga o‘quvchilarning davomat, o‘zlashtirish va xulq-atvori bo‘yicha oylik hisobotni joylashtirdi. Ushbu hujjatda o‘quvchilarning to‘liq ismi-sharifi, tug‘ilgan sanasi va telefon raqamlaridan tashqari, ayrim bolalarning sog‘lig‘i (surunkali kasalliklari) va oilaviy sharoiti haqidagi qaydlar ham ochiq ko‘rsatilgan.

Hujjat guruhga tashlangach, bir nechta ota-onalar farzandlarining shaxsiy va tibbiy ma’lumotlari jamoatchilikka oshkor bo‘lganidan norozi bo‘lib, maktab rahbariyatiga e’tiroz bildirishdi. Sinf rahbari esa o‘z tushuntirishida bu ma’lumotlarni faqat ota-onalarni ogohlantirish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida yuborganini bayon qildi.

? O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini umumiy guruhlarda tarqatish qonunchilikka qanchalik muvofiq?

? Bunday holat aniqlanganda maktab rahbariyati qonun doirasida qanday choralar ko‘rishi shart?

Normativ asos

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, o‘quvchining ismi-sharifi, tug‘ilgan yili, manzili, telefon raqami, ayniqsa uning sog‘lig‘i va oilaviy sharoitiga oid ma’lumotlar shaxsga doir ma’lumotlar hisoblanadi va davlat himoyasidadir. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga binoan, bunday ma’lumotlarni qayta ishlash va uchinchi shaxslarga tarqatishga faqat fuqaroning (voyaga yetmaganlar holatida — ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillarining) yozma roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Sinf rahbarining o‘quv jarayonini nazorat qilish istagi tushunarli, biroq usul qonunga ziddir. Har bir o‘quvchining bahosi, davomati yoki sog‘lig‘i haqidagi ma’lumot uning ota-onasiga faqat individual (shaxsiy) tartibda yetkazilishi shart. Guruh yopiq bo‘lsa-da, undagi ma’lumotlarni boshqa ota-onalar ko‘rishi axborotning sizib chiqishi va bolaning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi buzilishi deb baholanadi. Ayniqsa, tibbiy qaydlarning guruhda e’lon qilinishi bolaning ruhiyatiga shikast yetkazishi va sinfda kamsitilishiga (bullingga) sabab bo‘lishi mumkin.

Normativ asos

Bunday nizoli vaziyat yuzaga kelganda muassasa rahbari zudlik bilan guruhdagi ma’lumotlarni barcha a’zolardan o‘chirtirish chorasini ko‘rishi shart. Keyingi bosqichda mazkur holat yuzasidan direktor buyrug‘i bilan maxsus ishchi guruh tuziladi hamda mas’ul xodimlardan rasmiy tushuntirish xatlari olinib, xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi. Tekshiruv yakunlariga ko‘ra, o‘quvchilarning shaxsga doir ma’lumotlari daxlsizligini buzganligi va kasbiy etika qoidalariga rioya etmaganligi uchun sinf rahbariga nisbatan Mehnat kodeksida belgilangan intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.

Shu bilan bir qatorda, norozi bo‘lgan ota-onalar maktab rahbariyati va muassasa psixologi ishtirokida shaxsan qabul qilinib, tushuntirish ishlari olib borilishi nizoning sud darajasiga chiqishining oldini oladi. Kelgusida bunday kamchiliklar takrorlanmasligi uchun barcha pedagog xodimlarga shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash va ijtimoiy tarmoqlarda guruhlar yuritish tartibi bo‘yicha ichki yo‘riqnomalar qayta tanishtirilishi va profilaktika ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

KEYS 1.8. ELEKTRON KUNDALIK.

Keys

Maktabda ta’lim jarayonini raqamlashtirish maqsadida “e-maktab” elektron platformasidan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Biroq ayrim pedagoglar platformaning tarkibiy qismlari, undagi asosiy funksiyalar hamda o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va maktab ma’muriyati uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Shu munosabat bilan maktab rahbariyati pedagoglar uchun “e-maktab” platformasining imkoniyatlarini tushuntirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot tashkil etdi.

? Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan zamonaviy raqamli platformalar (emaktab) o‘zi nima, uning tarkibiy tuzilishi qanday va ushbu tizim ta’lim jarayoni ishtirokchilariga qanday amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi?

Bugungi kunda maktablarda keng qo‘llanilayotgan elektron jurnal va kundalik platformasi (“e-maktab.uz” tizimi) an’anaviy qog‘ozbozlikdan voz kechish, ta’lim sifatini boshqarish hamda jarayonning shaffofligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yagona raqamli ekotizim hisoblanadi.

Normativ asos

Umumta’lim muassasalarida dars jurnallari va o‘quvchilarning kundaliklarini to‘liq raqamli shaklga o‘tkazish hamda qog‘oz hujjatlarni bekor qilish bo‘yicha fundamental huquqiy asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qarori bilan belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son qarori talablarida esa maktab boshqaruvini raqamlashtirish hamda o‘quv jarayonini zamonaviy axborot tizimlari orqali nazorat qilish pedagog xodimlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat majburiyatlaridan biri sifatida mustahkamlangan. Shunga ko‘ra, elektron platforma shunchaki baho qayd etiladigan joy emas, balki maktab ma’muriyati, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarni virtual muhitda bog‘lovchi, rasmiy yuridik kuchga ega axborot almashinuvi majmuidir.

Ushbu raqamli platformaning ichki tarkibiga quyidagi asosiy funksional bloklar va imkoniyatlar kiradi:

- **Elektron dars jadvali va mavzular rejasi:** Tizimda har bir sinf va o‘qituvchining aniq dars jadvali hamda o‘quv yiliga mo‘ljallangan taqvim-mavzu rejalari avtomatlashtirilgan holda yuritiladi.
- **Raqamli jurnal va reyting tizimi:** Fan o‘qituvchilari dars jarayonida o‘quvchilarning joriy javoblari, nazorat ishlari va mustaqil topshiriqlar uchun qo‘yilgan ballarini real vaqt rejimida kiritib boradilar. Tizim choraklik va yillik baholarni inson omilisiz, o‘rtacha arifmetik hisob-kitoblar asosida avtomatik shakllantiradi.
- **Davomat nazorati:** Darsda ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga qo‘yiladigan qaydlar (masalan, “NB” belgilari) tizimga kiritilishi bilan bir vaqtda ota-onaning shaxsiy kabinetida aks etadi.
- **Masofaviy uy vazifalari va resurslar bazasi:** O‘qituvchilar o‘tilgan dars yuzasidan topshiriqlarni, zaruriy elektron darsliklar, video darslar hamda qo‘shimcha adabiyotlar havolalarini tizim orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarga yuborish imkoniyatiga ega.


Ta’lim ishtirokchilari uchun amaliy imkoniyatlar:

Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarori mezonlaridan kelib chiqib, mazkur tizim o‘z foydalanuvchilarining maqomiga ko‘ra turlicha keng qamrovli vazifalarni bajarishga imkon beradi:


- Maktab ma’muriyati uchun: Direktor va uning o‘rinbosarlari har bir sinf yoki fan bo‘yicha o‘zlashtirish va davomat ko‘rsatkichlarini, o‘qituvchilarning dars o‘tish va mavzularni tizimga kiritish faolligini masofadan turib tahlil qila oladilar. Bu esa maktab ichki monitoringini qog‘oz hisobotlarsiz, yagona tugmani bosish orqali amalga oshirish imkonini beradi.
- Pedagog xodimlar uchun: O‘qituvchilar chorak oxirida soatlab hisobot yozish, foizlarni hisoblash va qog‘oz jurnallarni to‘ldirish kabi ortiqcha yuklamalardan xalos bo‘lishadi. Shuningdek, ular ota-onalar bilan individual muloqot tizimini yo‘lga qo‘ya oladilar.
- Ota-onalar va o‘quvchilar uchun: Ota-onalar uydan yoki ish joyidan turib farzandining kundalik baholari, o‘qituvchilarning izohlari va davomatini kunlik kuzatib borishadi. O‘quvchilar esa darsda bo‘lmagan kunlari ham berilgan uy vazifalaridan xabardor bo‘lishadi va o‘z reytinglarini kuzatib boridilar.

E-MAKTAB’GA QANDAY KIRILADI?


Brauzeringizni (masalan, Google Chrome) oching va qidiruvga “emaktab.uz” deb yozing so’ngra chiqqan natijalardan rasmiy saytga kirishingiz kerak.



Asosiy sahifada joylashgan “Kirish” tugmasini bosing.



Keyin login va parolni kiritish oynasi ochiladi.



Login va parolingizni kiritib, “Kirish” tugmasini bosing. Shundan so‘ng siz shaxsiy kabinetingizga kirasiz va barcha funksiyalardan foydalanishingiz mumkin bo‘ladi.

